

**ADABIY OBZOR JANRINING RUS ADABIYOTIDAGI O‘RNI VA
BELINSKIY IJODIDAGI OBZORLAR TASNIFI**

Jamolova Zilola Nizomovna

Tadqiqotchi,

Buxoro Davlat universiteti,

Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada rus adabiyotida yaratilgan adabiy obzorlarning o‘zbek adabiyotiga ta’siri va mashhur rus tanqidchisi V.Belinskiyning obzorlar yaratishdagi mahorati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, obzor janrining muhim jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Adabiy obzor, adabiy tanqid, Belinskiy, sharh, munaqqid.

Adabiy tanqid janrlarining barchasi adabiy jarayonga, adabiyotning rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Adabiy tanqid zamonaviy badiiy asarlarni xalq hayoti bilan bog‘liq holda o‘rganadi, baholaydi, yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatib, shoir va yozuvchilarning ijodiy takomiliga yordam beradi. Adabiy tanqid mana shu vazifalarni bajarishda turli janrlar va shakllarga boy, taqriz, adabiy obzor, adabiy-tanqidiy maqola, adabiy portret, esse, tanqidiy-biografik ocherk, adabiy suhbat singari janrlar ancha faol bo‘lib, adabiy-tanqidiy fikrning o‘shiga yordam berib kelayapti.

Adabiy tanqidning muhim janrlaridan biri bo‘lgan adabiy obzorda izchil tahlil, xulosa chiqarish, umumlashtirish, nuqtayi nazarni ro‘y-rost ifodalash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir obzor chuqur mantiqiy ildizga ega bo‘lib, asosli, mulohaza va muhokamalari ilmiy-nazariy jihatdan puxta bo‘lmog‘ini har

bir davr adabiy jarayoni taqozo etadi.

Jahon ilmida ilmiy obzor materialni sharhlash uchun foydali, muhim vosita hisoblanadi. Obzorlar fan va texnika taraqqiyotida muayyan vazifalarni bajaradi, masalan: tarqoq bilimlarni tizimlashtirish; muammoning holati haqida ma'lumot to'plash, adabiyotlarni o'rganish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish; ushbu bilimlarning rivojlanish tamoyillarini ko'rsatuvchi yangi bilimlarning umumiy ko'rinishi; tadqiqotning yangi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish; istiqbolli g'oyalarni ko'rib chiqish.

Adabiy obzorning kelib chiqishi va o'zbek tanqidchiligiga kirib kelishi rus tanqidchiligi bilan ham bog'liq. Chunki adabiy obzor adabiy tanqidchilikning ko'hna, biroq faol janrlaridan sanaladi. Buyuk rus tanqidchisi V.G.Belinskiy yoqtirgan janrlardan biri — adabiy obzor bo'lgan. U "1841-yil rus adabiyoti", "1842-yil rus adabiyoti", "Kitob do'konida eshitib qolingan adabiy gurung" singari qator obzorlarni mahorat bilan yozgan. Shuning uchun adabiy obzor faoliyatining o'n besh yili davomida Belinskiy tanqidchiligining bosh, muhim janrlaridan biri bo'ldi. Uning mahorati shundaki, xoh xronologik obzor bo'lsin, xoh tematik obzor yaratsin, o'z oldiga shoh asarlarni kashf etishni maqsad qilib qo'yadi. Haqiqatan ham rus adabiyotida Belinskiy ijodida yillik obzor yetakchilik qilgan. Belinskiyning rus adabiyoti tarixinigina emas, balki jahon adabiyoti tarixini juda chuqur bilishi, obzor maqolalarida, biror yozuvchi yoki biror asar to'g'risidagi asarlarida ham bu masalaga yana diqqatini qaratishini zamondoshlari ta'kidlashgan. Bundan jahon adabiyoti tarixini g'oyat chuqur bilish, o'tkir adabiyot nazariyotchisi bo'lish obzorchi uchun juda zarurligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Rus adabiyotining yuksakligi uchun kurashgan V.Belinskiy adabiy obzorlarida adabiy jarayondagi kurashlar, ijodkorlarning intilishlari teran tadqiq

etilganligi yorqin ko‘rinadiki, ularni o‘rganish zamonaviy adabiyotshunoslikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbek tanqidchiligi ham V.Belinskiy adabiy tanqidining muhim jihatlari, tuzilishi, qurilishi kabi masalalarni o‘rgandilar, o‘z asarlarida uni qo‘lladilar. Masalan, “ M.Qo‘shjonov tanqidiy qarashlarining shakllanishida rus tanqidchilari ta’siri katta bo‘ldi. Tanqidchi tahlilga kirishar ekan, ko‘p hollarda V.Belinskiy uslubiga xos yo‘l tutib, fikrni asar haqida ma’lumot berishdan boshlaydi. Bu esa munaqqid asarlarining o‘qishli va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydigan muhim omilga aylanadi. U haqida olimning o‘zi shunday yozadi: "tanqidchilarimiz obrazlarni tanqidiy yo‘l bilan qayta tiklash usulini egallab oldilar. Yozuvchi badiiy asar yaratib, kitobxonni o‘z g‘oyasiga bir marta sherik qilsa, tanqidchi o‘sha asarni tahlil qila turib, asar g‘oyasiga, estetik qimmatiga kitobxonni ikkinchi bor sherik qiladigan bo‘ldi. Shu yo‘l bilan tanqidchi asarning ta’sir kuchini oshiradigan, adabiyotning kuchiga kuch qo‘shadigan bo‘ldi .

“Belinskiy adabiy tanqidchilikda yillik adabiyotning obzorini yozish traditsiyasini boshlab berdi. Aytaylik, “1942 yildagi rus adabiyoti”, “1943 yildagi rus adabiyoti” nomdagi qator obzor maqolalarida bir yilning adabiy manzarasini chizib qolmaydi, balki adabiyotning nazariy masalalari, aytaylik, romantizm va realizm, poeziya, liriklik, tipiklik, badiiy haqiqat, talant, xullas, adabiyotning o‘tkir nazariy muammolarini hal qilib ketadiki, bizning tanqidchiligimiz ustozning bu yo‘lini chuqur o‘rganishi kerak” . Buning ustiga Belinskiy rus adabiyoti tarixini juda yaxshi bilgan va shuning uchun obzor maqolalarida biror yozuvchi yoki biror asar to‘g‘risidagi asarlarida ham hali qadimgi yunon yoki hind, italiya yoki fransuz adabiyoti, ingliz yoki nemis adabiyoti bilan qiyoslaydi. U dunyo adabiyotiga yaxlit bir hodisa sifatida qaraydi va har bir xalqning o‘ziga xos adabiyoti bo‘lishini, shu o‘ziga xoslik orqaligina jahon adabiyotini boyitish

mumkinligini uqtiradi.

Haqiqatan ham rus adabiyotida Belinskiy ijodida yillik obzor yetakchilik qilgan. “Obzor janri, ayniqsa, yillik obzor Belinskiy tanqidchiligida hukmron bo‘lib qoldi: unga qimmatli asarlar va g‘oyalar bag‘ishlandi va aynan yillik obzorlar Pushkin haqidagi maqolalar turkumiga kiruvchi obzorlar bilan birga Belinskiy tanqidiy merosining markaziy o‘zagi (yadrosi)ni tashkil etadi” .

V.G.Belinskiy maqolalarida ilmiy tafakkur bilan badiiy tafakkurni chambarchas bog‘lash iste‘dodiga ega bo‘lgan. U Pushkin poeziyasi haqida gapirganda, "Pushkin millionlarning chanqog‘ini qondiradigan Volgadir" deb baho beradi. V.Koltsov she‘riyatini esa "muzdek tog‘ shalolasi" deya ta‘riflagan ekan. Belinskiy obzor maqolalarida rus adabiyotining Pushkingacha bo‘lgan manzarasini, Pushkin davrini, o‘zi yashagan davrdagi adabiy jarayonning manzarasini shu qadar teran tahlil qiladiki, “uning bu ilmiy kuzatishlari, fikr va xulosalari rus adabiyotining taraqqiyotini tezlashtiradi. U har bir yozuvchi ijodidagi o‘zgarishlar, yangi tendentsiyalarnigina emas, balki rus adabiyotining har bir yilidagi adabiy jarayondagi yutuqlar, yangiliklar, kamchiliklarni zo‘r bilimdonlik bilan yoritib beradi”.

U "Lermontov she‘rlari" obzor maqolasida shoir she‘riyatini inson qalb hissiyoti, teran kechinmalarining go‘zal ifodasi deya ta‘riflay turib, uni chinakam tirik organizm - jonli obrazga aylantirib yuboradi. Ko‘rinadiki, tanqidiy-falsafiy tajribalar samarasi V.Belinskiyning jo‘shqin subyektiv qarashlari bilan teran ilmiy mushohadalarida o‘zaro birlashib, kontseptual yaxlitlikni vujudga keltirgan.

Haqiqatan ham Belinskiyning rus adabiyoti tarixinigina emas, balki jahon adabiyoti tarixini juda chuqur bilishi, obzor maqolalarida, biror yozuvchi yoki biror asar to‘g‘risidagi asarlarida ham bu masalaga yana diqqatini qaratishini

zamondoshlari ta’kidlashgan. Bundan jahon adabiyoti tarixini g’oyat chuqur bilish, o’tkir adabiyot nazariyotchisi bo’lish obzorchi uchun juda zarurligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

“Belinskiy tanqidiy tafakkurining tiniqligi uning oxirgi yillarda yozilgan obzorlaridagi mantiqiy izchil tahlillar, maqolalarning aniq va tekis qurilishi va qismlarining garmonik uyg’unligida aks etib turadi”, - deb yozadi rus olimi B.Egorov rus mutafakkirining adabiy obzorlari haqida .

Haqiqatan ham Belinskiy obzorlarida, uning adabiy muammolarga keng nazar tashlashi, adabiyot rivoji yo’lidagi yutuq va kamchiliklarni to’g’ri payqab, zukkolik bilan ko’rsata olganini yaqqol ko’rinadi. “Adabiy obzor yaratuvchining maqsadi jonli adabiy jarayondagi kurashlar, holatlar, intilishlarni tadqiq etib, adabiyotda g’oyaviy-badiiy jihatdan yuqori asarlarni kashf etishdir. Obzorchi ma’lum chegaradagi, doiradagi asarlarni o’rganadi, shu bilan birga adabiyotning yuksakligi uchun kurashadi” .

Rus tanqidchisi, rus adabiyotining yuksakligi uchun kurashgan V.Belinskiy adabiy obzorlarida adabiy jarayondagi kurashlar, ijodkorlarning intilishlari teran tadqiq etilganligi yorqin ko’rinadiki, ularni o’rganish zamonaviy adabiyotshunoslikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiy obzorlarni yaratishda ma’lum bir talablar borligi sababli ularni tahlil qilish va yaratish munaqqiddan juda kuchli bilim va mushohadani talab qiladi. Rus adabiyotshunosligida yaratilgan adabiy obzorlarni tahlil qilgan Belinskiy tanqidiy tafakkurini o’rganish bugungi adabiy tanqidchilik oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент. Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 264 б.
2. Егоров Б.Ф. О мастерстве литературной критики: Жанры,

Композиция.Стиль. – Москва: Издательство Юрайт, 2019. – С 231.

3. Критика литературная // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А. Н. Николюкина. — Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. — Стб. 413—415 – С. 350.

4. Ахмедова Ш. Н. Ўзбек адабий танқидининг жанрий таркиби. Филол. фан.д-ри...дисс.– Тошкент, 2010. – Б. 220.

5. Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари. - Филол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент, 2000, – Б. 286.

6. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: 1979. – Б. 300.